

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA UNI SHAKLLANTIRISH

Muallif: Dilshodbek Shoniyozov Shoberdi ógli

Muassasa: Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti

Fakultet: Pedagogika

Kurs:2-kurs 101-p guruh talabasi

[Email:shoniyozovdilshodbek@gmail.com](mailto:shoniyozovdilshodbek@gmail.com)

☎ + 998 95 335 09 05

Muallif: Huramov Akbar Aliqul o'g'li

Muassasa: Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti

Fakultet: Pedagogika

Kurs:2-kurs 101-p guruh talabasi

☎ +998 87 904 65 55

[Emailakbar.khurramov@icloud.com](mailto:akbar.khurramov@icloud.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim va tarbiya jarayonining mazmuni, ularni samarali tashkil etish tamoyillari hamda o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan metod va yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, oila, maktab va jamiyatning tarbiyadagi o'zaro hamkorligi, pedagogning mahorati va o'quv jarayonidagi innovatsion usullar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, pedagogik jarayon, o'qituvchi mahorati, ta'lim metodlari, shakllantirish, oila, maktab, innovatsion texnologiyalar, shaxs rivoji.

Аннотация: В данной статье описано содержание образовательно-тренировочного процесса, принципы их эффективной организации, а также методы

и подходы, направленные на всестороннее развитие личности студента. Также обсуждаются взаимное сотрудничество семьи, школы и общества в образовании, мастерство педагога и инновационные методы в образовательном процессе.

Ключевые слова: Образование, обучение, педагогический процесс, мастерство учителя, методы обучения, формирование, семья, школа, инновационные технологии, развитие личности.

Abstract: This article describes the content of the education and training process, the principles of their effective organization, and methods and approaches aimed at comprehensive development of the student's personality. Also, the mutual cooperation of the family, school and society in education, the skills of the pedagogue and innovative methods in the educational process are discussed.

Key words: Education, training, pedagogical process, teacher's skills, educational methods, formation, family, school, innovative technologies, personal development.

KIRISH

Ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish bugungi kunda ta'lim tizimining eng asosiy vazifalaridan biridir. Chunki zamonaviy jamiyat taraqqiyoti malakali, bilimli, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashni talab etadi. Ta'limning muvaffaqiyati esa uni to'g'ri tashkil etish, tarbiyani shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda shakllantirish bilan chambarchas bog'liq.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish deganda aniq muddatda va tartibga asosan o'qituvchilar o'quvchilar bilan olib borilayotgan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida ta'limni sinf-dars shaklida o'tkazish keng tarqalgan. Sinf deganda o'quv yili davomida yagona o'quv dasturi bo'yicha shug'ullanuvchi o'quvchilar jamoasi tushuniladi. Dars muayyan miqdordagi doimiy o'quvchilar tarkibi bilan qat'iy tartibda uyushtiriladigan va aniq bir maqsad sari yo'naltiradigan didaktik tadbiridir.

Ta'lim-tarbiya aniq bir maqsadga har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida kelajak avlodni tarbiyalash uning ongi xulq-atvori va dunyoqarashini shakllantiruvchi

jarayondir. Insonning shaxs bo'lib rivojlanishi, uning odobi, hulq atvori, ongi, dunyoqarashini shakllantirish ta'lim va tarbiya jarayonida hosil bo'ladi. Bir shaxsning ta'lim-tarbiya olishida komil inson bo'lib yetishida ota-ona va ustozlarining hisssasi katta bo'ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy hayotdagi talablarga javob beruvchi shaxsni shakllantirish tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Talablar bilan birga boshqa insonlarni hurmat qilish o'zgalar fikrini tinglash, insonparvarlik va ilm olish ilmga intilish tarbiyaning muhim tamoyillaridandir. Ta'lim-tarbiya insonning rivojlanishida muhum ro'l o'ynaydi. Ta'lim tarbiya natijasida irsiyat va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan o'qish, yozish, mehnat, malaka va ko'nikmalar egallanishi hatto tug'ma kamchiliklarni ham ijobiy tomonga o'zgartirilishi ham mumkin. Tarbiya pedagogikaning ham asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Pedagogikada tarbiya ikki manoda farqlanadi. Keng ma'nodagi tarbiya va tor ma'nodagi tarbiya.

Ta'lim jarayonini tashkil etishning mohiyati

Ta'lim jarayoni o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining o'zaro hamkorligi asosida amalga oshadi. Uni to'g'ri tashkil etish quyidagilarga tayanadi:

o'quv dasturlarining aniqligi va tizimliliigi;

o'quv jarayonining maqsadli rejalashtirilishi;

fanlararo integratsiyaning yo'lga qo'yilishi;

zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish.

Bu jarayonda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi, motivatsiya beruvchi, tarbiyachi sifatida ishtirok etadi.

2. Tarbiya jarayonining o'rni va ahamiyati

Tarbiyaning asosiy vazifasi o'quvchida:

axloqiy fazilatlar,

milliy va umuminsoniy qadriyatlar,

madaniy xulq,
mehnatsevarlik,
mas'uliyat,
mustaqil fikrlash kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat.

Tarbiyaviy jarayon uzluksiz bo'lib, oila, maktab va jamiyatning hamkorligini talab etadi. Oila dastlabki tarbiya maskani bo'lsa, maktab bu jarayonni tizimli va ilmiy asosda davom ettiradi.

3. Ta'lim va tarbiyaning o'zaro uzviy bog'liqligi

Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas jarayonlar bo'lib, ular uyg'unlikda olib borilgandagina samarali natija beradi. O'quvchi

bilim olishi jarayonida:

intizomga,

tartibga,

o'z fikrini to'g'ri bayon qilishga,

boshqalarni hurmat qilishga

ham o'rganadi.

Bu esa ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

4. Ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari

Bugungi kunda quyidagi usullar keng qo'llanmoqda:

interfaol metodlar (aqliy hujum, klaster, debat, muammoli vaziyat);

axborot texnologiyalaridan foydalanish;

kompetensiyaga asoslangan ta'lim;

differential va individual yondashuv;

loyihaviy ishlar;

STEAM ta'limi elementlari.

Ushbu yondashuvlar o'quvchini mustaqil fikrlashga, muloqotga kirishishga, izlanishga va ijodkorlikka undaydi.

5. O'qituvchining roli

Ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining:

kasbiy mahoratiga,

pedagogik madaniyatiga,

kommunikativ qobiliyatiga,

bolalarga individual yondashuviga,

tarbiyaviy tadbirlarda faolligigabog'liq.

Shu sababli pedagogning uzluksiz o'qib-o'rganishi va innovatsion metodlardan foydalanishi muhimdir. Biz pedagoglar va ota-onalarning burchi farzandlarimizni va talabalarimizni Vatanga muhabbatli iymonli, e'tiqodli, rostgo'y, adolatli qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bunday farzandlarni o'zida kasb etgan yoshlarimiz, qanday vaziyatda bo'lmasin, hamma vaqt o'ziga doimo to'g'ri yo'l tanlay oladi. O'zlarining chuqur bilimlari va adolatli xatti xarakatlarini ko'nikmaga aylantirgan bunday nufuzli talaba yoshlarimiz mustaqil jamiyatimizga tamal toshini qo'yguvchi fidoyi insonlar bo'lib yetishlari muqarrardir. Inson tabiatining eng buyuk ne'mati. Unga aql- idrok, ong -farosat kabi buyuk fazilatlar ato etilganki, inson bu fazilatlarga sayqal berib, rivojlantirib, olamni, insoniyatni kamolotga yetaklab boradi. Taniqli shoirimiz E.Vohidov aytganlaridek:

Mulki borliq ichra bir mahal Mujazgina olam yaralgan Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan

Odamni inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob-axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ta'lim tarbiyaning o'rni beqiyos sanaladi. Har bir shaxsning yetuk inson bo'lib kamol topishi uchun ilmi bo'lish, bilim olishda doimo intilishdan to'xtamasligi zarur. Bunda bizning, pedagoglarimizning o'rni juda muhimdir. Bu imkoniyatlardan foydalanish har bir tarbiyalanuvchilarning bilim olish dars jarayoniga diqqat e'tibori bilan yondashish zarur. Kimnidur baholashda biz, avvalo, uning tarbiyasidan kelib chiqib fikr yuritamiz. Chin ma'noda yuksaklikka eltuvchi yo'l asosan tarbiyadan boshlanadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Yetuk inson darajasining ilk qadami tarbiyadir. Asrlar mobaynida ulug'lanib kelinayotgan komil inson tushunchasi tarbiya asosiga qurilgandir. Har bir insonning shaxsi harakteri, dunyoqarashi uning olgan tarbiyasidan kelib chiqadi. Insonlarning sizga bo'lgan munosabati ilm yoki darajangiz emas balki odob-axloq va tarbiyangiz asosida hosil bo'ladi.

Xulos:Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, komil insonni tarbiyalash jarayoni avvalo ta'lim va tarbiyaning uyg'unligiga asoslanadi. Pedagogning uzluksiz o'qib-o'rganishi, innovatsion metodlardan foydalanishi hamda ota-onalarning mas'uliyati yosh avlodning kelajagini belgilovchi muhim omillardir. Chunki farzandning iymonli, e'tiqodli, vatanparvar, adolatli va rostgo'y bo'lib ulg'ayishi nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Insonning ma'naviy barkamolligi uning odob-axloqi, madaniyati va dunyoqarashi bilan o'lchanadi. Haqiqiy yuksaklikka eltuvchi yo'l — tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas tushuncha bo'lib, ular uyg'un bo'lgandagina yetuk, ma'rifatli, mas'uliyatli shaxs shakllanadi. Shu bois, bugungi pedagoglarning asosiy vazifasi — har bir o'quvchining qalbiga nur, tafakkuriga kuch berish, uni mustaqil jamiyatimizga fidoyi inson sifatida voyaga yetkazishdir. Zero, insonning haqiqiy qadri uning ilmida emas, balki odob-axloqi va tarbiyasida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Umumiy pedagogika. X. Ibraimov. M. Quronov. Sahhof 2023.

2. Педагогика. Н. Файбуллаев, Р.Йодгоров, Р.Маматкулова, ^.Тошмуродова. Тошкент-2000 йил
3. Таълимимиз истиклоли йулида. Жура Йулдошев. "Шарк" нашриёт-матбаа консернининг бош мухдрририяти. Тошкент- 1996 йил.
4. Интеллектуал салох,ият-тараккиёт мезони. Тошкент- "O'zbekiston"-2011.